

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh


12 noyabr, 2026 yil



Bankni strategik rivojlantirish
departamenti

SQB ,NBU,AGRO BANK va IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi (yanvar 2025 yildan 12 yanvar 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra)

SQB, Ipoteka bank, Agro bank va O'zmilliybank evrobondlarining daromadliligi, foizlarda




- 2024-yil iyul oyida **SQB** Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi **9,362%**ni tashkil etdi.
- **SQB** obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida **6,479%** darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasaydi va **6,427%** ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik **6,427% – 9,498%** gacha o'zgarib turdi.
- 2025-yil oktyabr oyida **SQB** muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi **9,276%**ni tashkil etdi.
- **SQB** obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida **9,402%** darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich ko'tarildi va **9,403%** ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik **9,388% – 9,422%** gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta **NBU** evrobondlarining daromadliligi **6,147%** darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib **6,076%** ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich **6,076-6,219%** gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta **AGRO BANK** evrobondlarining daromadliligi **6,717%** darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib **6,584%** ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich **6,584-6,717%** gacha o'zgarib turdi.
- O'tgan hafta **IPOTEKA BANK** evrobondlarining daromadliligi **6,355%** darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib **6,377%** ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich **6,352-6,401%** gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi




Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,64-3,75% atrofida barqaror bo'lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,70% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib esa u biroz pasayib, 3,64% ga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o'zgarishlarini ko'rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo'yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o'zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko'plab ipoteka kreditlari bog'langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o'tgan haftaning boshiga kelib 2,019% (3 oylik) va 2,116% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o'rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo'lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko'rsatkichlar 2,116% (6 oylik) va 2,019% (3 oylik) ni tashkil etdi.




O'zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O'tgan hafta valyuta birjasidagi savdo **1 322,4** million dollarni tashkil etdi, bu o'tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan **981,7** million dollarga ko'proq.
- ✓ O'tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi **12 004** so'mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib ko'tarilib **12 131** so'mga yetdi.
- ✓ Har yili so'm o'rtacha **3,5-4,5%** ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (**9,77%**), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari bilan bog'liq edi. Joriy yil boshidan buyon devalvatsiya **1,06%** ni tashkil etdi.

Dollarning so'mga nisbatan almashinish kursi




12.01.2026 yil holatiga ko'ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs **TBC bank**da qayd etilgan – **12 132** so'm. Boshqa banklarda esa kurs **12 140–12 190** so'm atrofida o'zgarib turdi.



Aholi uchun dollar sotish bo'yicha eng foydali kurs **SQB** da qayd etilgan – **12 100** so'm. Boshqa ko'plab banklarda esa kurs **12 080 – 12 040** so'm atrofida bo'lgan.


USD-RUB dinamikasi



➤ Dollar tor diapazonda barqaror saqlanmoqda

2026 yil 5–9 yanvar oralig'idagi ma'lumotlarga ko'ra, AQSh dollarining Rossiya rubliga nisbatan almashuv kursi yuqori darajadagi barqarorlikni saqlab qoldi. Xususan, 5–6 yanvar kunlari 81,3 rubl darajasigacha pasaygach, keyingi to'rt savdo kuni (7–9 yanvar) davomida kurs 80,6 rubl atrofida mustahkamlandi. Kuzatilayotgan dinamikada aniq shakllangan trend mavjud emas bo'lib, kurs 80,6–81,3 rubl oralig'idagi tor diapazonda yonlama harakat bilan ifodalanmoqda. Mazkur davrda valyuta bozorida talab va taklif nisbatlarida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi.


RUB-YUAN dinamikasi



➤ Rubl yuanga nisbatan barqaror

2026 yil 5–9 yanvar kunlari oralig'ida Rossiya rublining Xitoy yuani (RUB/CNY)ga nisbatan kursi 11,1–11,3 oralig'idagi tor diapazonda tebrandi. Eng yuqori ko'rsatkich 6 yanvar kuni — 11,3 darajasida qayd etildi, shundan so'ng kurs bosqichma-bosqich pasayib, 9 yanvarga kelib 11,1 darajasiga tushdi. Mazkur ko'rsatkichlar valyuta juftligida sezilarli tebranishlar yo'qligini va yonlama harakat ustunligini aks ettiradi. Ushbu davrda bozor faolligi past bo'lib, bu bayram kunlari uchun xos holat sanaladi; talab va taklifda keskin o'zgarishlar kuzatilmadi. RUB/CNY kursi 11,1–11,3 diapazonida saqlanib qolmoqda, bozor barqarorlik va past volatillikni namoyon etmoqda. Yaqin kunlarda ham kurs ushbu chegaralar doirasida qolishi ehtimoli yuqori.

EUR-USD dinamikasi




➤ Yevro yanvar boshida dollarga nisbatan zaiflashmoqda


2026 yil 5–9 yanvar oralig'ida yevroning AQSh dollariga nisbatan kursi bosqichma-bosqich pasayib, 1,1728 darajasidan 1,1662 darajasigacha tushdi. Haftaning eng yuqori ko'rsatkichi 6 yanvar kuni — 1,1742 darajasida qayd etilgan bo'lib, shundan so'ng yevro dollar oldida asta-sekin o'z pozitsiyalarini boy bera boshladi. Mazkur davrda bozor o'rtacha faollik bilan tavsiflandi, keskin tebranishlar kuzatilmadi. Yevroning zaiflashuvi valyuta bozoridagi bayramdan keyingi tuzatish jarayonlari hamda ikki asosiy valyuta o'rtasida talab va taklif muvozanati bilan izohlanadi. EUR/USD juftligi yumshoq pasayuvchi trendni namoyon etmoqda, bozor esa tinch va prognoz qilinadigan holatda qolmoqda. Muhim makroiqtisodiy yangiliklar bo'lmagan taqdirda, yaqin kunlarda kursning mo'tadil pasayish diapazonida savdo qilinishi ehtimoli yuqori.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlarini dinamikasi (bir untsiya uchun, AQSh dollarida)



Brent nefti narxlarini dinamikasi (bir barrel uchun, AQSh dollarida)



TTF gaz narxlarini dinamikasi (megavatt-soat uchun, AQSh dollarida)



➤ Oltin narxi keskin oshdi

2026 yil 5–9 yanvar kunlari oralig'ida oltin narxi bir untsiya uchun 4 448–4 509,8 AQSh dollari oralig'idagi tor diapazonda tebrandi. Hafta 4 448,2 dollar darajasidan boshlandi, 6 yanvar kuni esa o'rtacha talab va mahalliy spekulyativ xaridlar fonida narx 4 496,8 dollargacha keskin oshdi. Keyingi kunlarda oltin narxi 7 yanvar kuni 4 452,7 dollargacha tuzatilib, 8 yanvar kuni 4 475,7 dollar atrofida barqarorlashdi va keskin tebranishsiz yonlama harakatni namoyon etdi. 9 yanvarga kelib oltin narxi haftalik maksimum — 4 509,8 dollarga yetdi, bu bayramdan keyingi past savdo faolligi sharoitida mo'tadil o'sishni aks ettirdi.

Haftalik dinamika oltin bozori konsolidatsiya bosqichida ekanini, past volatillik va yaqqol ifodalangan trendning yo'qligini ko'rsatmoqda. Yaqin kunlarda tashqi shoklar kuzatilmagan taqdirda, narxning joriy diapazon doirasida mo'tadil tebranishlar va yonlama harakatni saqlab qolishi kutilmoqda.

➤ Brent nefti tiklanmoqda

2026 yil 5–9 yanvar kunlari oralig'ida Brent markali neft narxi 1 barrel uchun 59,96–63,34 AQSh dollari diapazonida tebranib, o'suvchi dinamika namoyon etdi. Hafta 5 yanvar kuni 61,76 dollar darajasidan boshlandi. 6 yanvar kuni narx 60,7 dollargacha biroz tuzatildi, 7 yanvarda esa qisqa muddatli taklif bosimi fonida haftalik minimum — 59,96 dollar qayd etildi. Keyingi kunlarda Brent faol o'sishni namoyish etdi: 8 yanvar kuni narx 61,99 dollarga yetdi, 9 yanvarga kelib esa o'rtacha talabning ortishi va bozor faolligining barqarorligi ta'sirida haftalik maksimum — 63,34 dollarga chiqdi.

O'tgan haftada Brent bozori aniq o'suvchi trendni ko'rsatdi: narx 59,96 dollarlik minimumdan 63,34 dollarlik maksimumgacha ko'tarildi. Yangi tashqi omillar yuzaga kelmagan taqdirda, yaqin kunlarda narxning joriy diapazonda mo'tadil o'sishi yoki yonlama harakatni davom ettirishi kutilmoqda.

➤ Gaz narxida kichik pasayish

2026 yil 5–9 yanvar kunlari oralig'ida TTF gaz narxi bir megavatt-soat uchun 32,9–34,1 AQSh dollari diapazonida tebrandi.

Hafta 5 yanvar kuni 33,4 dollar darajasidan boshlandi. 6 yanvar kuni narx 33,7 dollargacha biroz pasaydi. Eng yuqori ko'rsatkich 7 yanvar kuni — 34,1 dollar darajasida qayd etildi, shundan so'ng narx 8 yanvar kuni 32,9 dollargacha pasaydi va 9 yanvarga kelib 33,8 dollar darajasigacha tiklandi. Haftalik dinamika bayramdan keyingi past bozor faolligi fonida mo'tadil tebranishlarni aks ettirib, keskin sakrashsiz kechdi.

5–9 yanvar davrida TTF gaz bozori mo'tadil tebranishlar bilan yonlama harakatni namoyon etdi. Yangi tashqi omillar yuzaga kelmagan taqdirda, yaqin kunlarda narxning 32,9–34,1 dollar diapazonida saqlanib qolishi kutilmoqda.

Yangiliklar

Germaniyadagi Sparkasse banki omborxonasining o'g'irlanishi

Gelsenkirchenda Sparkasse banki omborxonasida jasur o'g'irlik sodir bo'ldi. Jinoyatchilar Rojdestvo ta'tillari kunlarida bank seyflaridan katta miqdordagi qimmatbaho narsalarni olib ketishdi, bu esa xavfsizlikka nisbatan tanqidlarga sabab bo'ldi.

AQSh banklarining foydasi 2025-yil IV choragida oshdi

JPMorgan Chase, Bank of America, Citigroup, Wells Fargo, Goldman Sachs va Morgan Stanley kabi yirik banklar foydaning sezilarli o'sishini e'lon qilishga tayyorlanmoqda. Asosan bu o'sish investitsiya banki xizmatlari, IPO faoliyati, M&A bitimlari va barqaror aktiv savdosi daromadlarining ko'payishi hisobiga yuz berdi. Bu esa AQShdagi yirik bank guruhlarini so'nggi yillarda eng daromadli tashkilotlardan biriga aylantirmoqda.

Garanti Bank 2026 yilda bank tizimiga bosim kuchayishi haqida ogohlantirdi

Turkiyaning eng yirik xususiy banklaridan biri bo'lgan Garanti Bank bosh ijrochi direktori iqtisodiy cheklovlar, foiz stavkalarining yuqori darajada saqlanib qolishi hamda kreditlash ustidan nazorat kuchayishi 2026 yilni Turkiya bank tizimi uchun yanada murakkab davrga aylantirishi mumkinligini ma'lum qildi. Uning ta'kidlashicha, ushbu omillar kreditlash hajmining cheklangan o'sishiga hamda banklar daromadliligining pasayishiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas.

Markaziy bank pul o'tkazmalarini firibgarlikka qarshi tekshiruvini kengaytirmoqda

2026 yil 1 yanvardan boshlab Rossiya banklari firibgarlik alomatlari mavjud bo'lgan hollarda pul o'tkazmalarini yangi mezonlar asosida kengaytirilgan tartibda tekshirish majburiyatini oladi. Mazkur chora-tadbirlar moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashish hamda AML (pul yuvishga qarshi) talablariga rioya etishni kuchaytirish doirasida joriy etilmoqda.